

## UKRAINA INQIROZINING YAPONIYA TASHQI SIYOSATIGA TA'SIRI

**Nusratullayev Nizomiddin Bahrom o'g'li**  
**Toshkent davlat sharqshunoslik**  
**universiteti talabasi**

**Annotatsiya.** Bu maqolada XXI asrning dastlabki chorragida yuz bergan Ukraina inqirozi tufayli o'zgargan, Yaponiya tashqi siyosati tahlil qilinadi. Yaponiyaning tashqi siyosatini o'zgartirishi nafaqat AQSh balki, tarqalib ketgan Yevropa Ittifoqi uchun ham ayni muddao bo'ldi. Tashqi siyosatda to'liq Ukraina tomon turgan Yaponiya, o'z harakatlari bilan qo'shnisi Rossiya o'rtasida ancha keskinlikni vujudga keltirdi. Inqirozgacha Tokio tashqi siyosatida asosan AQSh va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi hamkorlik ustuvor bo'lgan bo'lsa, inqirozdan keyin bu hamkorlikka Yevropa davlatlari ham kiritildi. Bundan tashqari, inqirozgacha Kurill orollari masalasini yumshatishga intilgan va nisbatan neytral pozitsiya saqlab turgan Yaponiya bosqindan keyin, Rossiyaga qarshi xalqaro sanksiyalarga qo'shilib, Ukrainani ochiq qo'llab-quvvatladi hamda Yevropa bilan diplomatik hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. Shuningdek bu o'zgarishlar Yaponiya tashqi siyosatining global xavfsizlik tizimidagi rolini kuchaytirib, uni xalqaro maydonda faolroq ishtirokchi bo'lishga undadi.

**Kalit so'zlar:** Yaponiya tashqi siyosati, Ukraina inqirozi, xalqaro sanksiyalar, neytral pozitsiya, g'arb bloki, Yevropa diplomatiyasi, xalqaro xavfsizlik.

## THE IMPACT OF THE UKRAINE CRISIS ON JAPAN'S FOREIGN POLICY

**Abstract.** This article analyzes how Japan's foreign policy has changed due to the Ukraine crisis that occurred in the first quarter of the 21st century. Japan's shift in foreign policy served not only the interests of the United States but also those of a fragmented European Union. Fully siding with Ukraine in foreign affairs,

Japan's actions led to significant tensions with its neighbor Russia. Before the crisis, Japan's foreign policy primarily focused on cooperation with the United States and the Asia-Pacific region. However, after the crisis, cooperation expanded to include European countries as well. Moreover, while Japan previously maintained a relatively neutral stance and sought to ease the Kuril Islands issue, after the invasion it joined international sanctions against Russia, openly supported Ukraine, and elevated its diplomatic cooperation with Europe to a new level. These changes also strengthened Japan's role in the global security system, pushing it to become a more active player on the international stage.

**Keywords:** Japan's foreign policy, Ukraine crisis, international sanctions, neutral stance, Western bloc, European diplomacy, international security.

### ВЛИЯНИЕ УКРАИНСКОГО КРИЗИСА НА ВНЕШНЮЮ ПОЛИТИКУ ЯПОНИИ

**Аннотация.** В данной статье анализируются изменения во внешней политике Японии, вызванные украинским кризисом, произошедшим в первой четверти XXI века. Изменение внешнеполитического курса Японии оказалось выгодным не только для США, но и для раздробленного Европейского Союза. Заняв в международной политике чёткую позицию в поддержку Украины, Япония своими действиями вызвала значительное обострение отношений с соседней Россией. До кризиса внешняя политика Токио в основном была ориентирована на сотрудничество с США и странами Азиатско-Тихоокеанского региона. Однако после начала конфликта Япония расширила своё сотрудничество и с европейскими странами. Кроме того, если ранее Япония стремилась к смягчению вопроса Курильских островов и сохраняла относительно нейтральную позицию, то после начала военных действий она присоединилась к международным санкциям против России, открыто поддержала Украину и подняла дипломатическое сотрудничество с Европой на новый уровень. Эти изменения также усилили роль Японии в

системе глобальной безопасности и подтолкнули её к более активному участию на международной арене.

**Ключевые слова:** внешняя политика Японии, украинский кризис, международные санкции, нейтральная позиция, западный блок, европейская дипломатия, международная безопасность.

## KIRISH

Hozirgi zamonaviy dunyoda davlatlar o'rtasidagi urushlarni oldini olish yoki uni to'xtatish xalqaro xavfsizlikni taminlashning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. AQSh, G'arbiy Yevropa va Yaponiya ikkinchi jahon urushidan keyin o'zaro iliq munosabatlar tufayli, hamda bugungi kundagi notinchliklardan so'ng integratsiya va strategik hamkorlikning yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda. Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi esa ular o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaqinlashtirib, ularning iqtisodiy-savdo, siyosiy va harbiy yo'nalishlarda yangi kelishuvlar imzolashiga sabab bo'ldi. Inqirozdan keyin Yaponiya Rossiyaning bank-moliya tizimi, bir nechta mansabdor shaxslar va ko'plab shu urushga daxldor deb hisoblangan kompaniyalarga nisbatan sanksiyalar joriy qildi. Bundan tashqari xalqaro sanksiyalarga ham qo'shilib Ukrainani to'liq qo'llab-quvvatlab, unga iqtisodiy yordam ham ko'rsatdi. Rossiyaning 2022-yilgi bosqinidan keyin, Yaponiya G'arb bloki bilan to'liq va uyg'un holda harakat qila boshladi<sup>1</sup>.

Inqirozgacha Tokio hukumati Rossiya bilan ehtiyotkorona munosabatlarni olib borgan, chunki energiya resurslariga qaramlik, iqtisodiy hamkorlik va Kurill orollari masalasida muzokaralar olib borish zarurati tufayli, Yaponiya neytral pozitsiyani egallab turdi. Ammo 2022-yilda Ukraina urushi boshlanishi bilan pozitsiya tubdan o'zgardi<sup>2</sup>. Yaponiya tashqi siyosati endilikda

<sup>1</sup> Schnelle, Diana. "Japan's energy mix after the Ukraine crisis". East Asia Forum. May 10, 2022. <https://www.eastasiaforum.org/2022/05/10/japans-energy-mix-after-the-ukraine-crisis/> (accessed August 11, 2023)

<sup>2</sup> Barrash, Ike. "Russia's Militarization of the Kuril Islands." Center for Strategic and International Studies. September 27, 2022. <https://www.csis.org/blogs/new-perspectives-asia/russias-militarization-kuril-islands> (accessed August 11, 2023)

ikki asosiy yo‘nalishda yangilandi: 1. Rossiyaga nisbatan neytral pozitsiyadan faol tashqi siyosatga o‘tildi

2. Tashqi siyosatda faqat AQSh bilan emas balki YI davlatlari bilan diplomatiya hamda o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va rivojlantirish yo‘li tanlandi.

2022-yil 24-fevralda Rossiya Ukrainaga keng ko‘lamli bostirib kirishni boshladi. Bunga nisbatan, G‘arbning javobi, jumladan “Avstraliya, Kanada, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va Qo‘shma Shtatlar, hamda Yaponiya - prezident Putin rejimiga qarshi misli ko‘rilmagan ko‘plab keng qamrovli bir tomonlama sanksiyalarni joriy qilish edi. Bularga Rossiyaning moliya sektoriga (shu jumladan uning markaziy bankiga) nisbatan cheklovlar kiradi. Bular: Rossiyani SWIFT banklararo tranzaksiyalaridan olib tashlash va Rossiya iqtisodiyotining strategik tarmoqlarida (masalan, aviatsiya, energetika va yuk tashish) tovarlar va xizmatlar bo'yicha yangi qoidalar. Shuningdek, ko‘rsatilgan shaxslarning keng doirasiga, jumladan, Putinga yaqin shaxslarga nisbatan sanksiyalar e‘lon qilindi. Bularga:

1. Harbiy harakatlarga yordam beradiganlar (masalan, Vagner guruhi)
2. Bosib olingan Ukraina hududidagi askarlar va amaldorlar
3. G‘arb mamlakatlarida aktivlari bo‘lgan oligarxlar Putinga aloqador deb hisoblanadigan yoki muhim sohalardagi manfaatlarga ega bo‘lgan shaxslar”.

Yaponiyaning 2022-yilgi kiritgan sanksiyalari birinchi marta 2014 yilda joriy etilgan chora-tadbirlar asosida qurilgan (Rossiyaning Qrim va qo‘shni hududlarni anneksiya qilishiga javoban) kelishuvlarga asosan kiritildi. Keyingi siyosat sanksiyalardan qochishga harakat qilgan, hamda Rossiyadan tashqarida joylashgan urushning “qo‘llab-quvvatlovchilari” va Ukrainaning bosib olingan hududida urush jinoyatlari va inson huquqlarini buzgan shaxslarga nisbatan kengaytirildi.

Yaponiya Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi sababli Rossiyaga qarshi sanksiyalar doirasida o‘nlab jismoniy va yuridik shaxslarning aktivlari muzlatilganini, shuningdek, eksportga keng qamrovli taqiqlar qo‘yganini e‘lon qildi. Bularga quyidagilar kiradi: 11 nafar rossiyalik va bitta Shimoliy koreyalik

shaxslar, harbiy sohaga aloqador 29 ta guruh vakillari va uchta Rossiya banki va bir Gruziya banki sanksiyalarga duchor bo'ldi<sup>3</sup>.

Sanksiyaga kiritilgan rossiyalik shaxslar ro'yxatiga bir nechta korporativ tashkilot rahbarlari, xususan, "Rostec" davlat korporatsiyasi bosh direktorining birinchi o'rinbosari Vladimir Artyakov, Sergey Petrov, PSV Technologies MChJ bosh direktori va egasi Pavel Marinychev va olmos qazib oluvchi Alrosa kompaniyasi bosh direktori hamda "Testk omplekt" MChJ bosh direktori Ruslan Bulatovlar kiritilgan<sup>4</sup>. Bundan tashqari, Yaponiya hukumati Shimoliy Koreya fuqarosi Rim Yong Xyokning aktivlarini muzlatishga qaror qildi. U Koreya konchilikni rivojlantirish savdo korporatsiyasining (KOMID) Suriyadagi vakilining o'rinbosari edi. Bu kompaniya avvalroq BMT tomonidan sanksiya qilingan edi. Sanksiyalangan shaxslar orasida Rossiyada joylashgan Marine Trans Shipping, Moskva issiqlik texnologiya instituti, M.F. Stelmax, Butun Rossiya radiotexnika ilmiy-tadqiqot instituti, NPO Mashinostroyeniya harbiy-sanoat korporatsiyasi aktsiyadorlik jamiyati, shuningdek, CMR Bank, Rossiya moliya korporatsiyasi banki va Taymer banki. Ushbu muassasalarning aktivlarini muzlatish 9 fevraldan kuchga kiradi.

Yaponiya hukumati Rossiyaning 22 kompaniyasi uchun "Rossiya sanoat salohiyatini oshirishga hissa qo'shishi" mumkin bo'lgan mahsulotlarni eksport qilishni taqiqladi. Bu sanksiya xorijda joylashgan kompaniyalarga ham taalluqlidir, jumladan Xitoydan 18 ta, Qozog'iston va Tailanddan 1 ta, Qirg'izistondan 2 ta va Turkiyadan 8 ta hamda Birlashgan Arab Amirliklaridan 1 ta kompaniyalar sanksiyaga uchragan. Ularning barchasi Moskvaga sanksiyalardan qochishga yordam berganlikda ayblanmoqda<sup>5</sup>.

Shuningdek, 2023-yil apreldan Yaponiya hukumati Rossiya Federatsiyasiga tegishli qo'shimcha 17 jismoniy va 78 shaxsni hamda Qrim va

<sup>3</sup> Erika szyszcak "Sanctions effectiveness: what lessons three years into the war on Ukraine?," Economics observatory, 19 Feb 2025 <https://economicsobservatory.com>

<sup>4</sup> [https://www.gov.im/media/1378991/annex-to-financial-sanctions-russia-24-february-2023\\_compressed.pdf](https://www.gov.im/media/1378991/annex-to-financial-sanctions-russia-24-february-2023_compressed.pdf)

<sup>5</sup> <https://www.ashurst.com/en/insights/russia-sanctions-tracker/japan-sanctions/>

Sevastopol avtonom respublikasining anneksiyasi yoki Ukrainaning sharqiy qismidagi beqarorlik bilan bevosita aloqador deb topilgan yoki Ukrainaning sharqiy va janubiy qismi bilan bogʻliq boʻlgan va Rossiya bilan bevosita bogʻliq boʻlgan sud tomonidan tayinlangan 7 nafar shaxsga sanksiyalar joriy qildi. Federatsiya tomonidan ularga quyidagi sanksiyalar qoʻllanilgan, toʻlovlar boʻyicha cheklovlar - belgilangan shaxslar yoki tashkilotlarga toʻlovni amalga oshirish uchun litsenziya talab qilinadi, kapital operatsiyalari boʻyicha cheklovlar - belgilangan shaxs yoki tashkilotlar bilan kapital operatsiyalari, shu jumladan depozitlar, trastlar va kredit shartnomalari va boshqalar uchun litsenziya talab qilinadi va Rossiya Federatsiyasining belgilangan sub'ektlariga eksportni taqiqlash hamda 2023-yil 2-iyundan boshlab Yaponiya hukumati Tashqi ishlar vazirligining 2023-yil 26- maydagi xabarnomasi bilan belgilangan Rossiya Federatsiyasining 80 ta sub'ektiga eksport taqiqini joriy qildi<sup>6</sup>.

Bu sanksiyalar Tokioning Rossiyaga qarshi Ukraina manfaatlarini toʻliq himoya qilish uchun jiddiy kurashga kirishganligini bildirdi.

Rossiya moliya tizimiga qarshi kiritilgan sanksiyalar: Yaponiya hukumati ayrimlarga aktivlarni muzlatish choralarini qoʻlladi. Bular: Rossiya, Belarusiya yoki Donetsk bilan bogʻliq boʻlgan belgilangan jismoniy va yuridik shaxslar. Belgilangan jismoniy va yuridik shaxslar roʻyxati bir necha marta kengaytirildi. 1. Rossiya va Belarus bilan bogʻliq 34 ta sub'ekt (shu jumladan, Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki Rossiya Federatsiyasi va VTB banki).

2. Rossiya va Belarusiya bilan bogʻliq 95 kishi (shu jumladan Rossiya Prezidenti, Belarus Prezidenti va maʼlum miqdordagi oligarxlar) va Donetsk va Lugansk bilan aloqador 54 kishi.

Aktivlarni muzlatish choralariga koʻra, quyidagi harakatlarni amalga oshirish mumkin emas. Yaponiya hukumati ruxsatisiz sanksiyalangan tomonlar sanksiyalangan tomonlarga har qanday toʻlov va kapital operatsiyalarni (masalan, depozit, ishonch yoki kredit shartnomalari) amalga oshirishni taqiqladi.

<sup>6</sup> <https://www.noandt.com/en/publications/publication20220324/>

Tokio universiteti professori Suzuki Kazutoning ta'kidlashicha, sanksiyalar qisqa muddatda ("short term") kutgan natijalarni bermagan, ayniqsa Rossiyaning agressiv harakatlarini to'xtatish nuqtai nazaridan. Lekin uzoq va o'rta muddatda ("medium to long term") ularga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. U Rossiyaning urush xarajatlarini ko'tarish, texnologik va harbiy quvvat yetkazib berilishini cheklash kabi yo'llar orqali sanksiyalarning maqsadini asta-sekin amalga oshirishga qaratilgan ekanini aytadi. Suzuki eng samarali choralardan biri bu "yuqori texnologiyalar (high-tech materials) eksportini cheklash" ekanligini takidlati<sup>7</sup>. Chunki ushbu sohalarida Rossiyaning importga bo'lgan qaramligi katta bo'lib, bu sohalarida cheklovlar Rossiyaning harbiy va strategik potentsialini susaytirishi mumkin.

Ukraina inqirozidan keyin Yaponiya va Yevropa o'rtasidagi munosabatlar: Eng muhimlaridan biri bu Yevropa Ittifoqi va Yaponiya yetakchilari, 2025-yil 23-iyul kuni Yaponiyaning Tokio shahrida 30-Yevropa Ittifoqi-Yaponiya sammitini o'tkazdi va quyidagilar muhokama qilindi:

1. Yevropa Ittifoqi va Yaponiya strategik hamkorligi hech qachon bugungidek kuchli bo'lmagan va bu har qachongidan ham muhimroqdir. Yevropa Ittifoqi va Yaponiya qonun ustuvorligi, asosiy erkinliklar, demokratiya, inson huquqlari, ochiq, erkin va adolatli savdo kabi qadriyatlar va tamoyillarni qat'iy baham ko'radi. Huquqiy asoslar sifatida esa, Yevropa Ittifoqi-Yaponiya strategik sheriklik shartnomasi va Yevropa Ittifoqi-Yaponiya iqtisodiy sheriklik to'g'risidagi bitim (EPA).

2. Rivojlanayotgan va murakkab global geosiyosiy vaziyat, xususan, Rossiyaning Ukrainaga qarshi bosqinchilik urushi, erkin va ochiq Hind-Tinch okeani uchun jiddiy muammolar, shuningdek, boshqa mintaqaviy va xalqaro muammolar fonida bizning yaqin hamkorligimiz yanada muhimroq bo'ldi.

3. Biz ushbu muammolarni hal qilish uchun hamfikir va xalqaro hamkorlar bilan ishlash tarafdorimiz. Shu orqali samarali, adolatli va barqaror global

<sup>7</sup> <https://pacificpolarity.substack.com/p/rising-sun-shifting-tides-kazuto>

boshqaruv, shuningdek, xalqaro huquqni, shu jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Ustavini hurmat qilgan holda, qonun ustuvorligiga asoslangan ko'p tomonlama va xalqaro tartibni o'rnatishga bo'lgan qat'iy majburiyatimizni qo'llab-quvvatlaymiz.

Avvalroq Yevropa Ittifoqi tashqi siyosat bo'yicha ma'sul Xosep Borrel va Yaponiya tashqi ishlar vaziri Takeshi Ivaya hamkorlik to'g'risida 2024-yil noyabr oyida Tokioda bo'lib o'tgan strategik muloqot chog'ida e'lon qilgan edi. "Biz juda xavfli dunyoda yashayapmiz"<sup>8</sup>, - dedi Borrell. "Ikkala mintaqamizdagi vaziyatni hisobga olgan holda, ushbu siyosiy asos paydo bo'lgan tahdidlarga birgalikda qarshi kurashish qobiliyatimizni muvofiqlashtiradi". U xavfsizlik paktini "tarixiy va o'z vaqtida" deb ta'riflab, bu Yevropa Ittifoqining 27 azosi va Hind-Tinch okeani mintaqasidagi davlat bilan tuzilgan, birinchi bunday kelishuv ekanligini ta'kidladi.

Shuningdek, Agence France-Presse axborot agentligiga ko'ra, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya xavfsizlik va mudofaa hamkorligi doirasida ikki tomon "aniq dengiz hamkorligini", shu jumladan, qo'shma mashqlar va port qo'ng'iroqlari orqali, hamda "o'zaro belgilangan uchinchi davlatlar" ni o'z ichiga olgan holda, qo'shma o'quv mashg'ulotlari o'tkazilishi mumkinligi aytiladi. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya "mudofaa sanoati bilan bog'liq masalalar bo'yicha malumot almashishni o'z ichiga olgan tegishli mudofaa tashabbuslarini rivojlantirishni" muhokama qilishga kelishib oldi.

Tokio universiteti qoshidagi Osiyo bo'yicha ilg'or tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi Vey-Xsiu Xuanning aytishicha, Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi va Xitoyning Tayvan bo'g'ozi va Janubiy Xitoy dengizidagi faoliyati Yevropa Ittifoqi-Yaponiya hamkorligini mustahkamlagan omillardan biri hisoblanadi<sup>9</sup>.

<sup>8</sup> <https://ipdefenseforum.com/2024/11/japan-eu-sign-defense-pact-spurred-by-threats-from-the-prc-russia/>

<sup>9</sup> <https://ipdefenseforum.com/2024/11/japan-eu-sign-defense-pact-spurred-by-threats-from-the-prc-russia/>

Yo‘qoridagi kelishuvlar asosida shuni aytish mumkinki, Ukraina inqirozidan keyin Yaponiya va YI davlatlarining o‘zaro munosabatlari yangi bosqichga qadam qo‘yib, endilikda bu mintaqada Yaponiya nafaqat AQShning balki YI ning ham muhim sherigi va ittifoqchisiga aylanganligini bildirdi. Shuningdek bu bitim va shartnomalar Tokio va AQSh boshchiligidagi G‘arbiy Yevropaning keyingi istiqbolli hamkorliklarini belgilab berdi.

Bosh vazir Kishida Yaponiya 2023-yilda G7 raisligini egallashga tayyor ekanligini va Yaponiya yetakchiligini Osiyodan tashqarida ham namoyish etish imkoniyatini tan oldi<sup>10</sup>. Tokio ritorikani siyosatga aylantira boshladi. 2023-yil mart oyida Yaponiya va Ukraina diplomatik aloqalarini “Maxsus global hamkorlik” darajasiga ko‘tardilar. Bir yil o‘tgach, Yaponiya Yevro-Atlantika hududidan tashqarida birinchi davlat bo‘lib, Ukrainani mudofaa qilish majburiyatini olgan ikki tomonlama shartnomani imzoladi. Bu diplomatik muhim bosqich bo‘lib, Tokioni Rossiya agressiyasiga global javob berishda hal qiluvchi ro‘l o‘ynadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inqirozgacha asosan neytral pozitsiyada turgan Tokio, bosqindan keyin Rossiyaga qarshi faol sanksiyalarga asoslangan tashqi siyosatga o‘tdi. Yaponiya xalqaro sanksiyalarga qo‘shilib, uning iqtisodiy moliya resurslari, energetika sohasi, logistika va xizmat ko‘rsatish hamda bank tizimlariga nisbatan jiddiy sanksiyalar kiritdi. Bu esa Rossiyaning agressiv harakatlariga o‘rta va uzoq muddatda albatta o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Shuning sanksiyalar doirasida Prezident Putin rejimini qo‘llab-quvvatlayotgan bir nechta oligarxlar va yuzga yaqin shaxslar hamda Donetsk va Lugansk viloyatlarida urush xarakatlarini kuchaytirishga harakat qilayotganlar ham chetda qolmadi.

Yaponiya Ukraina inqirozi natijasida 2022-yildan boshlab G‘arb blokining faol ishtirokchisiga aylanib, YI bilan bir nechta kelishuvlar tuzdi, hamda strategik sheriklikni ham yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada Yaponiya xalqaro xavfsizlik

<sup>10</sup> <https://www.opb.org/article/2022/02/24/live-updates-ukraine-war/>

tizimida faolroq o‘rin egallab, o‘z pozitsiyasini namoyish qildi. Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi natijasida Rossiyaga xalqaro maydonda qarshi bo‘lgan va rivojlangan davlatlar soni, Yaponiya qo‘shilishi natijasida yana bittaga kengaydi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Rabson, Steve. “Resistant Islands: Okinawa Confronts Japan and the United States by Gavan Mc Cormack and Satoko Oka Norimatsu.” *The Journal of Japanese Studies* 40, no. 2 (2014): 427–31. <https://doi.org/10.1353/jjs.2014.0052>.
2. Inoguchi, Takashi. “Are There Any Theories of International Relations in Japan?” *International Relations of the Asia-Pacific* 7, no. 3 (2007): 369–90. <https://doi.org/10.1093/irap/lcm015>
3. Malafaia, Thiago Correa. “Japanese International Relations: An Assessment of the 1971-2011 Period.” *Brazilian Political Science Review* 10, no. 1 (2016). <https://doi.org/10.1590/1981-38212016000100007>.
4. Siddi, M. (2022). EU-Russia energy relations. In M. Knodt & J. Kemmerzell (Eds.), *Handbook of energy governance in Europe* (pp. 237–261). Springer.
5. Sobczyk, K. (2015). Konflikt na Ukrainie–porażka czy szansa dla Wspólnej Polityki Bezpieczeństwa i Obrony UE? *Bezpieczeństwo Narodowe*, 1, 37–60.
6. State Agency for Restoration and Development of Infrastructure of Ukraine. (2023). Партнери з японії консультуватимуть агентство відновлення з питань відбудови. Retrieved from <https://restoration.gov.ua/press/news/57749.html>.
7. Strycharz, D. (2022). *Role Theory and Russian foreign policy: Rolling changes in national role conceptions*. Routledge.

8. Sumi, S. (2022). Japan's role in Ukraine from 2014-2019. *Asia-Pacific Review*, 29(2), 11–18.
9. Szczepanska, K. (2022). Contesting Japan's international role: The responses of Japanese non-governmental organisations to the transformation of Japanese ODA policy. In M. Grossman, F. Schortgen, & G. M. Friedrichs (Eds.), *National role conceptions in a new millennium: Defining a place in a changing world* (pp. 97–112). Routledge.
10. The Japan Times. (2023, December 15). Japan expands sanctions over Russia's Ukraine invasion. Retrieved from <https://www.japantimes.co.jp/news/2023/12/15/japan/japan>
11. Tsuruoka, M. (2023). Ōshū sensō to shite no Ukuraina shinkō. *Shincho Sensho*. Tsuruoka, M. (2024, March 6). Video report: Two years after the beginning of Russia's full-scale invasion of Ukraine, how will Japan support Ukraine?, Retrieved from <https://fpcj.jp/en/worldnews-en/briefings-en/p=109153/>.
12. Udovik, V. (2022). *Nihon to Ukuraina: Nikokukan kankei 120 nen no ayumi*. Interbooks.
13. UNDP. (2016). Early recovery of social services and peacebuilding in the Donetsk and Luhansk Oblasts. Retrieved from <https://info.undp.org/docs/pdc/Documents/>